

**INGLIZ TILI BILAN INTEGRASIYA JARAYONIDA KIMYO FANI
BO‘YICHA O‘QUV ISHLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY
TAMOYILLARI VA NAZARIY ASOSLARI**

Hasan Olim o‘g‘li Bekpo‘latov
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: bekpolatov1994@inbox.ru

ANNOTASIYA

Mazkur ishda (maqolada) ingliz tili bilan integratsiya sharoitlarida kimyo bo‘yicha o‘quv ishlarini tashkillashtirishning asosiy tamoyillari va nazariy asoslari o‘z aksini topgan.

Maktabdagagi kimyoviy til – bu maktabdagagi kimyoviy ta’limning maqsadi va mohiyatiga muvofiq didaktik tarzda qayta ishlangan kimyo fanining tili demakdir. Ingliz tili va kimyoviy fanning tilini ko‘rib chiqish jarayonida semantik (shartli belgilar va leksik birliklar – atamalarning mazmunini ularni interpretatsiya qilish yo‘li bilan va ularning haqiqiy kimyoviy ob‘yektlar bilan aloqasinini aniqlash), etimologik, (kimyoviy atamalar, nomlar va belgilar), kommunikativ aspektlardagi tutashish nuqtalarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Kalit so‘zlar: Kimyo, pedagogika, psixologiya, aspektlar, didaktika, bilingval (ikki tilli) tadqiqot, kommunikativlik, integratsiya.

**BASIC PRINCIPLES AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE
ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK IN CHEMISTRY IN THE
PROCESS OF INTEGRATION WITH THE ENGLISH LANGUAGE**

Hasan Olim ugli Bekpulatov
Basic doctoral student of Gulistan State University
E-mail: bekpolatov1994@inbox.ru

ABSTRACT

This work reveals the theoretical foundations and the most important principles for the organization of educational work in chemistry in terms of integration with the English language.

The school chemical language is the language of chemical science, didactically reworked in accordance with the goals and content of school chemical education. When considering the English language and the language of chemical science, it is possible

to identify points of contact in semantic (disclosure of the meaning of designations and lexical units - terms by their interpretation and connection with real chemical objects), etymological (origin of chemical terms, names and symbols), communicative (communication between subjects by reading, listening, writing) aspects.

Keywords: chemistry, pedagogy, psychology, aspects, didactics, bilingual, research, communication, integration.

KIRISH

Ingliz tili bilan integratsiya sharoitlarida kimyo bo'yicha o'quv ishlarini tashkillashtirishning asosiy tamoyillari va nazariy asoslarini tasvirlash uchun, biz o'zida quyidagilarni mujassam etgan tadqiqotning tushunish apparatini aniqlash va to'g'irlab olishimiz zarur deb hisoblaymiz:[2]

Bilingval (ikki tilli) taqdiqot – ma'lumotlar almashinish maqsidini o'zida mujassam etgan, ikki tilda (ona tili va xorijiy til) muloqot qilish jarayoni. Kimyo bo'yicha bilingval o'quv ishi – ikki tildan (ona tili va xorijiy til) muloqot vositasi sifatida foydalanishga asoslangan o'quv ishi demakdim.

Bilingval tarzda integratsiya qilingan bilimlar – bir vaqtning o'zida ikkita ta'lim sohalariga – maxsus metodlar yordamida shakllangan kimyo va xorijiy tilga tegishli bo'lgan bilimlar demakdir.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Axborot-kommunikativ mahorat – o'quvchilarning muloqotning turli vaziyatlaridagi tegishli (bizning holatimizda - kimyoviy) tematika bo'yicha ma'lumotlarni olish, baholash va bo'lishish qobiliyatini ta'minlab beruvchi mahorat demakdir.[3]

Axborot-kommunikativ kompetentlik – o'quvchining oldinroq u tomonidan egallangan tajribalari asosidagi ma'lumotlar bilan muloqot qilish va ishlashning adekvat qobiliyatlaridan foydalangan holda tegishli (bizning holatimizda - kimyoviy) tematika bo'yicha muloqotga kirisha olish qobiliyati va tayyorgarligi. Biz mazkur holatda O.A.Zaxarovaning ishida ko'rib chiqilgan tushunchani aniqlashtiramiz. Muallif axborot-kommunikativ kompetentlikka insonning, bir tomonidan dinamik ijtimoiy-madaniy muhitda oriyentir olishi, turli madaniyatlar muhitida o'zaro birgalikda harakatlanishi, boshqa tomonidan – ma'lumotlar va bilimlarning hajmini oshirib borish, yuqori darajadagi shaxsiy faolligi bilan ajralib turadigan muloqot qilishning shaxsiy uslubini yaratish, axborot-texnik muhitda harakatlanishni o'rganish imkoniyati sifatida ta'rif beradi.[4]

Muallifning ta'kidlashicha, axborot-kommunikativ kompetentlik insonga belgilar va ishoralar, xulq-atvor va muloqotlarning ijtimoiy kodlari olamida yashash imkoniyatini taqdim etadi.

M.A.Shatalovning tadqiqotlariga tayanadigan bo'lsak, kimyoni maktabda o'rganish jarayonidagi predmetlararo integratsiyani amalga oshirishda biz quyidagi metodlardan foydalanamiz:[5]

- akademik (monologik bayonlar, dialogik bayonlar, mustaqil izlanish faoliyati)
- innovatsion (tadqiqot, muammoli-o'yinli, muammoli-baxs munozarali, jamoaviy tarzda muammoni yechish metodi)
- spesifik yoki o'ziga xos (muammoli-integrativ kimyoviy eksperiment)

NATIJALAR

Yuqorida bayon etilganlar munosabati bilan quyidagi eng muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Kimyo va xorijiy tilning integratsiya tamoyili – yangi bilingval-intergratsiya bilimlarining vujudga kelishi, bilingval axborot-kommunikativ mahoratlarning shakllanishi uchun, shuningdek ta'limning integratsiyalashgan metodlaridan foydalanish uchun sharoitlarni yaratib beruvchi ikkita o'quv premetlari (kimyo va xorijiy til) doirasidagi bilim va ko'nikmalarning o'zaro aloqasi, birlashmasi va sintezini anglatuvchi tamoyil demakdir.[6]

- O'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish tamoyili – har bir o'quvchining shaxsiyatiga oid psixologik, yosh va boshqa xususiyatlarini inobatga olish zaruratini ko'rsatuvchi tamoyil.

- Kimyo va xorijiy til darslari bilan izchillik tamoyili – o'quvchilarda kimyo va xorijiy til dasrlarida va xorijiy til bilan integratsiya sharoitlarida kimyo bo'yicha o'quv ishlari jarayonida shakllanadigan bilimlar va ko'nikmalarning o'zaro aloqasi va izchilligiga e'tiborni qaratuvchi tamoyil.[7]

MUHOKAMA

Zamonaviy ta'lim shaxs masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi-talabaning o'qituvchi singari dars jarayonining faol ijrochisiga aylantirmoqda. Bu esa yosh avlodni erkin fikrga, ijodkorlikka undamoqda.

Bugungi innovatsion ijodiy yondashuvning nazariy metodologik tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning huquqiy, me'yoriy asoslari so'nggi yillarda tubdan yangilandi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-may, PQ-5117-son qaroridan kelib chiqqan holda, xorijiy tillarni o'qitish sohasida

“bog‘cha-maktab-oliy ta’lim tashkiloti-korxona” tamoyilidagi uzlucksiz ta’lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.[1]

Ushbu maqola doirasida esa kimyo va xorijiy tilning o‘zaro integratsiyalashuvi jarayonida hosil bo‘ladigan yangicha metod va tamoyillar yoritib berilgan. Bu metod va tamoyillar o‘qituvchilarining darsga yanada yangicha yondashuvlarini taqozo etsa, o‘quvchilarining ushbu fanlar doirasida oladigan bilim va ko‘nikmalarini yanada soddalashtiradi. Bu esa ta’lim samaradorligini yanada oshirishda o‘ziga xos yondashuv sifatida muhim ahamiyatga egadir.[6]

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni t’kidlab o‘tish joizki, maktabdagagi kimyo tili – bu maktabdagagi kimyoviy ta’limning maqsadi va mohiyatiga muvofiq didaktik tarzda qayta ishlangan kimyo fanining tili demakdir. Ingliz tili va kimyoviy fanning tilini ko‘rib chiqish jarayonida semantik (shartli belgilar va leksik birliklar – atamalarning mazmunini ularni interpretatsiya qilish yo‘li bilan va ularning haqiqiy kimyoviy ob’yektlar bilan aloqasinini aniqlash), etimologik, (kimyoviy atamalar, nomlar va belgilar), kommunikativ aspektlardagi tutashish nuqtalarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 19 майдаги, ПҚ-5117-сон қарори.
2. Аршанский Е.А. Методика обучения химии в классах гуманитарного профиля. Москва. Вентана_Граф -2005г 226 стр.
3. Салеева М.В. Развитие языковой личности в процессе межпредметной интеграции и языка. «Развитие психологии личности и педагогических проблем социальной педагогики. Материалы РНТК. Минск. – 1998г.
4. Захарова О.А. Замонавий шароитларда ўқувчиларнинг ахборот-коммуникатив компетентлиги. Москва давлат маданият ва санъат университетининг ахборотномаси. 2006 й. 3-сон, 20-27 бетлар.
5. Шаталов М.А. Тизимли билимларни шакллантиришда предметлар аро алоқалар. «Химия в школе» (“Мактабда кимё фани”) журнали, 1997 йил, 5-сон.
6. Борунова Е.Б. Химия на английском: не навреди. Журнал «Химия в школе»- 2008г. №7, стр 35-36
7. Борунова Е.Б., Перевозчикова Н.В. О реализации межпредметных связей химии с английским языком. Журнал «Химия в школе» -2010г. №1, стр 26-3